GLOBALLASHUV SHAROITIDA KADRLAR SALOHIYATI RIVOJLANISHIDA MAFKURAVIY TAHDIDLARNI BARTARAF ETISHNING IJTIMOIY FALSAFIY ASOSLARI

M.Sh.Abduraxmonov
O‘zbekiston Milliy universiteti “Falsafa” kafedrasi dotsenti, (PhD)

Annotatsiya: Maqolada globallashuv sharoitida axborot makonining kengayishi, mafkuraviy ta’sirlar va g‘oyaviy qarama-qarshiliklarning kuchayishi natijasida yuzaga kelayotgan axborot xurujlari, ommaviy madaniyat va yot g‘oyalarning singdirilishi, milliy va ma’naviy qadriyatlarning qadrsizlanishi kabi mafkuraviy tahdidlar xususiyatlari, kadrlarni tayyorlashda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy g‘oya va milliy mafkurani mustahkamlash, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, axborot madaniyatini yuksaltirish yo‘nalishlari ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv sharoiti, mafkuraviy ta’sir, kadrlar salohiyati, qadriyatlar tizimi, axborot, ko‘nikma, madaniy-ma’rifiy.

Globallashuv jarayoni zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy tendensiyalaridan biri hisoblanib, u iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalarda chuqur o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Bu jarayon davlatlar, jamiyatlar va insonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning kuchayishi, axborot almashinuvining tezlashuvi va umumjahon makonining shakllanishi bilan xarakterlanadi hamda kadrlar salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Globallashuv tashqi muhit hamda inson ongi, dunyoqarashi va ijtimoiy faoliyatini ham tubdan o‘zgartiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda [1,56].

Iqtisodiy sohada globallashuv xalqaro mehnat taqsimoti, investitsiyalar oqimi va transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishi bilan bog‘liq. Bu mehnat bozoriga yuqori malakali, raqobatbardosh va innovatsion fikrlaydigan kadrlarga bo‘lgan talabni keskin oshiradi. Shu bois yuqori salohiyatli kadrlar strategik ahamiyatga ega davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda [2,210].

Siyosiy sohada globallashuv demokratik institutlar taraqqiyoti, fuqarolik jamiyati va xalqaro hamkorlik mexanizmlari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, geosiyosiy manfaatlar to‘qnashuvi, axborot urushi va mafkuraviy ta’sirlarni ham kuchayishiga olib keladi. Axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari taraqqiyoti natijasida mafkuraviy ta’sir o‘tkazish vositalarining takomillashishi kadrlar va yosh avlodning siyosiy, ijtimoiy pozitsiyasiga ta’sir ko‘rsatadi [3,87].

Ma’naviy sohada globallashuv milliy madaniyat, qadriyat va an’analarga ta’sir etuvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. U turli madaniyatlarning o‘zaro muloqoti va ommaviy madaniyat ta’siri orqali milliy qadriyatlarning zaiflashuviga hamda yoshlarning ma’naviy dunyosi, qadriyatlar tizimiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin [4,78]. Shu nuqtai nazardan yuqori kasbiy bilim, keng dunyoqarash, tanqidiy fikrlash qobiliyati va mafkuraviy chidamlilikka ega bo‘lgan zamonaviy kadrni ta’lim tizimi, ma’naviy tarbiya va ijtimoiy muhit orqali shakllantiriladi.

Globallashuv sharoitida insonning identichligi va ijtimoiy rollari qayta shakllantiriladi, kadrlar salohiyatini rivojlantirishda bilim va axborot asosiy resursga aylanadi [3,45], madaniyatlar va sivilizatsiyalar ziddiyatlari kuchayib, mafkuraviy tahdidlarning asosiy manbalaridan biriga aylanadi [5,67]. Axborot oqimining keskin ortishi mafkuraviy tahdidlarning kuchayishiga hamda yoshlar ongiga ta’sir etuvchi omillarning kuchayishiga olib kelmoqda [1,112]. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida axborot makoni cheksiz darajada kengayib, inson ongiga turli g‘oyalar, qarashlar va qadriyatlarning tezkor kirib borishini ta’minlamoqda. Bu jarayonning salbiy oqibatlaridan biri mafkuraviy tahdidlarning kuchayishiga olib kelishidir [1,52]. Axborot oqimining nazoratsiz tarqalishi yot g‘oyalar, destruktiv mafkuralar va manipulyativ axborotlarning ommaviy tarqalishiga imkon yaratib, yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi sababli yoshlar turli axborot xurujlariga tez beriladigan qatlam hisoblanadi [4,94].

Zamonaviy axborot muhitida “axborot urushi”, “feyk axborot”, “psixologik ta’sir” kabi tushunchalar dolzarb ahamiyat kasb etib, axborot oqimi nafaqat ma’lumot uzatish vositasi, balki inson ongiga ta’sir ko‘rsatish, fikrlash tarzini o‘zgartirish va muayyan pozitsiyaga yo‘naltirish vositasiga aylanmoqda hamda mafkuraviy tahdidlarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda [3,103]. Hozirda jamiyatda bilim va axborotni nazorat qiluvchi sub’ekt insonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi [3,45]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ayrim davlatlar va kuchlarning mafkuraviy tahdidlari yot va destruktiv g‘oyalarni singdirish, milliy qadriyatlarni yo‘qotish, ommaviy madaniyat orqali ta’sir, feyk va manipulyativ axborotlarni tarqatishdan iborat. Bu omillar yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatib, milliy o‘zligini anglash darajasini pasaytirishi, ijtimoiy faolligini susaytirishi va befarqlik kayfiyatini shakllantiradi [6,112]. S. Xantington fikriga ko‘ra, globallashuv sharoitida madaniy va sivilizatsion ziddiyatlar kuchayib, mafkuraviy qarama-qarshiliklarning asosiy manbasiga aylanadi [2,67]. Hozirda axborot imkoniyat omili bo‘lishdan tashqari jiddiy tahdid manbai bo‘lganligi bois, jamiyatda axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Kadrlar salohiyati inson kapitali tushunchasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni o‘z ichiga oladi hamda strategik ahamiyat kasb etadi [2,210]. Inson kapitali shaxsning bilim, ko‘nikma, tajriba, intellektual salohiyat va ma’naviy qadriyatlari yig‘indisidir. Kadrlar salohiyati faqat mehnat resurslari emas, balki yuqori intellektual va ma’naviy imkoniyatlarga ega ijtimoiy kuch sifatida qaraladi [2,215]. Zamonaviy sharoitda inson kapitaliga bo‘lgan e’tiborning ortishi globallashuv jarayonlari, axborot jamiyatining shakllanishi va innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq.

Kadrlar salohiyati tarkibiy jihatdan bilim - shaxsning nazariy va amaliy tayyorgarligini ifodalovchi omil; ko‘nikma va malaka - shaxsning bilimni amalda qo‘llay olish qobiliyati; qadriyatlar va ma’naviy mezonlar - shaxsning ijtimoiy xulq-atvori, mas’uliyati va fuqarolik pozitsiyasini belgilaydigan omillardan iborat [4,45]. Shu nuqtai nazardan kadrlar salohiyati kasbiy jihatdan tashqari ma’naviy-axloqiy tomondan baholanishi zarur, chunki globallashuv sharoitida ular turli mafkuraviy ta’sirlar ostida bo‘lib, barqaror qadriyatlar tizimi shakllanmagan bo‘lsa, tashqi ta’sirlarga oson beriladilar [6,67]. Hozirda kadrlar muntazam o‘zini rivojlantirishi, raqamli savodxonlik, axborot bilan ishlash ko‘nikmalari va innovatsion fikrlashni shakllantirishi muhimdir. Keng dunyoqarashga ega, xorijiy tillar va zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirgan, turli madaniyatlarga moslasha oladigan yuqori malakali kadrlarni yetishtirish iqtisodiy

raqobatbardoshlikni ta’minlaydi va innovatsion iqtisodiyotni shakllantiradi hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlab, milliy xavfsizlik ta’minlaydi. Zamonaviy ta’lim tizimi inson kapitalini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishi lozim.

Madaniy ta’sirlar va turli g‘oyaviy oqimlar o‘rtasida kurashning kuchayishi sharoitida shaxs ongi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etish zamonaviy jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Milliy g‘oya jamiyatni birlashtiruvchi, uning strategik maqsadlarini belgilab beruvchi asosiy mafkuraviy poydevor bo‘lib, shaxsda vatanparvarlik, milliy iftixor, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Milliy g‘oyani mustahkamlash mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetning birinchi bosqichi sifatida baholanadi. Ma’naviy tarbiya shaxsning ichki dunyosi, axloqiy mezonlari va qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy omildir. Yuksak ma’naviyatli shaxs tashqi ta’sirlarga chidamli, turli destruktiv g‘oyalarni saralay oladigan, ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirgan bo‘ladi. Zamonaviy jamiyatda shaxs doimiy o‘zgaruvchan muhitga moslashib yashashi zarurligi bois ta’lim uzluksiz rivojlanishi kerak [1,120].

Axborot madaniyati shaxsning axborotni to‘g‘ri qabul qilish, saralash, tahlil qilish va undan oqilona foydalanish qobiliyatini ifodalaydi, chunki zamonaviy axborot muhitida feyk ma’lumotlar va manipulyativ axborotlar keng tarqalayotgani sababli, ularni ajrata bilish mafkuraviy immunitetni shakllantiradi. Mafkuraviy immunitet – bu shaxsning tashqi yot g‘oyalar va salbiy ta’sirlarga nisbatan ongli va barqaror munosabat bildirish qobiliyati bo‘lib, u bilim, ma’naviyat va axborot madaniyati uyg‘unligi asosida shakllanadi. Axborot jamiyatida bilim asosiy resursga aylanadi va uni boshqara olgan jamiyat barqaror rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi [3, 88].

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida bilim, ko‘nikma, ma’naviyat va mafkura asosida kadrlar salohiyatini rivojlantirish, mafkuraviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish mexanizmlarini takomillashtirish jamiyat barqaror taraqqiyotinining muhim shartidir. Axborot oqimining keskin ortishi sharoitida mafkuraviy tahdidlarning yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini kamaytirish uchun ta’lim, tarbiya va axborot siyosatidan iborat kompleks yondashuvni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bilim, ko‘nikma va ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligida shakllangan inson kapitali strategik ahamiyat kasb etib, jamiyatning rivojlanishini, iqtisodiy o‘sishni va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Jamiyatda axborot madaniyati va mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamda milliy g‘oya, ma’naviy tarbiya va ta’lim tizimini kompleks yo‘lga qo‘yish mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гидденс Э. Последствия модерности. – М.: Праксис, 2011. – 352 с.
2. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. – М.: Academia, 2004. – 944 с.
3. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 2010. – 597 p.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
5. Huntington S. The Clash of Civilizations. – New York: Simon & Schuster, 1996. – 367 p.
6. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.